

HUDUDDA TRANSPORT TIZIMLARI JOYLASHUVINI BAHOLASHDA TASNIFLASH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Niyazov Adxam Abduganiyevich –

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yo'nalishi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fanda tasnif va tasniflash masalasi, uning ahamiyati qayd etilgan. Transport geografiyasidagi mavjud tasniflashlarga qisqacha to'xtalib o'tilgan va ma'lum bir rayonda transport tizimlari holatini baholash uchun rayonni tasniflash yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: tasnif, tasniflash, transport tuguni, transport tizimlari, transport turlari, tranzit hudud.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЛАССИФИКАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИ ОЦЕНКЕ РАСПОЛОЖЕНИЯ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ НА ТЕРРИТОРИИ

Ниязов Адхам Абдуганиевич

Чирчикский государственный педагогический университет, докторант по экономической и социальной географии

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос классификации и классификации в науке, ее значение. Кратко затронуты существующие классификации в географии транспорта и предложены пути классификации районов для оценки состояния транспортных систем в конкретном районе.

Ключевые слова: классификация, транспортный узел, транспортные системы, виды транспорта, транзитная зона.

USE OF CLASSIFICATION OPPORTUNITIES IN ASSESSING THE LOCATION OF TRANSPORT SYSTEMS IN THE TERRITORY

Niyazov Adkham Abduganievich -

a doctoral candidate in the field of Economic and Social Geography at the Chirchik State Pedagogical University

Annotation: This article notes the issue of classification and classification in science, its importance. The existing classifications in Transport Geography are briefly touched upon, and ways of classifying the zone have been proposed to assess the state of transport systems in a given zone.

Keywords: *classification, transport node, transport systems, types of transport, transit area.*

Har bir o'rganilayotgan obyektни yanada chuqur, to'liq holatda qamrab olish, olingan natijalarni tushunib yetish hamda muhokama qilishda mavzuni tasnif asosida tartiblab olishning ahamiyati katta.

Ma'lumki, tasnif (arab. — saralash, tartibga solish), klassifikatsiya — ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Mavzuni o'rganishda bunday tasnif qulaylik tug'diradi. Tasnifda bo'linuvchi va bo'luvchi tushunchalar o'zining qat'iy o'rniga ega bo'ladi. Tasnif natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, xaritalar, kodekslar vujudga keladi. Tasnif ilmiy tadqiqotning natijasi va muhim vositasi bo'lib, bilish jarayonida katta ahamiyatga ega.

Tasnif imkoniyati bizga olingan va to'plangan bilimlarni, ma'lumotlarni, kuzatish, natijalarini tasniflashga yo'l ochadi. Tasniflash vaqt o'tishi bilan o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarimizning takomillashuviga muvofiq ravishda takomillashtirib, tuzatilib, boyitilib boriladi. Tasniflash bizga har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o'rni ko'rsatib beradi. Tasniflash natijasida hosil bo'lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan bilim hisoblanadi.

Tasniflash — bu o'rganilayotgan hodisalarni tartiblash maqsadida ularning muhim belgilariga qarab guruhlashga, turkumlarga ajratishga imkon yaratadi.

Har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan, o'rganilayotgan obyekt va predmetidan, ma'lumotlarning hajmi va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib turli tasniflash usullari taklif etiladi.

Transport geografiyasida transport turlarini tortish kuchlaridan kelib chiqib og'irlik kuchidan foydalanish, yelkanli, ot(eshak) transporti, bug', issiqlik, elektr, elektr o'tkazuvchi transport turlari mavjud.

Harakatlanish yo'nalishiga ko'ra quruqlik, suv, havo va maxsus transport turlari ajratiladi. O'z navbatida quruqlik transporti avtomobil va temir yo'l, suv transporti dengiz va daryo, havo transporti aviatsiya va vertolyot, maxsus transport turlariga esa quvur(tabiiy gaz, suv va hk.), elektron va ko'tarma yo'llar farqlanadi.

Jamoat xizmatini ko'rsatuvchi transport turlarida esa avtobus, tramvay, trolleybus, metro, yo'nalishli taksi, kanat, velosiped, ot arava turlari guruhlanadi.

Yana bir e'tibor berishimiz kerak bo'lgan tasniflashga ko'ra transport aloqalari va eltuv xizmatlari belgisiga ko'ra farqlanish ilgari suriladi. Bunda transport aloqalarining birinchi guruhi shaharlararo va davlatlararo aloqalarni ta'minlasa, ikkinchi guruhi shahar ichi va atrofidagi yoki mahalliy rayon doirasidagi aloqalarni ta'minlaydi.

Shuningdek hozirgi kunda transport turlari xizmat ko'rsatish sohasidan kelib chiqib yo'lovchi va yuk tashuvchi transport, tonnarhiga ko'ra arzon va qimmat, masofasiga ko'ra qisqa,

o'рта va uzoq masofaga harakatlanuvchi, harakatlanish hududiga ko'ra tekislik va tog'lik, mulkchilik shakliga ko'ra xususiy va davlat kabi transport turlari ham ajratilib ko'rsatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, transport geografiyasida aniq bir hududning transport geografiyasiga tavsif berilayotganda, uning transport imkoniyatlarini tahlil qilayotganda, hududning transport bilan ta'minlanganligini baholayotganda hamda o'rganilayotgan hududda transport tizimlarini to'g'ri tashkil etish, transport tizimlarini joylashrtirish istiqbolini prognoz qilish uchun quyidagi tasniflash metodologiyasini ham tatbiq qilish maqsadga muvoviq sanaladi:

1. O'rganilayotgan hududdan o'tgan transport yo'llarining ahamiyatiga ko'ra:

- mahalliy yo'llar;
- davlat ahamiyatidagi yo'llar;
- xalqaro ahamiyatdagi yo'llar.

2. Hududning megapolis yoki aglomeratsiya bilan tutashganlik holatiga ko'ra:

- bevosita(to'g'ridan – tog'ri) tutashgan;
- bilvosita(biror hudud orqali) tutashgan.

3. Hududning qo'shni davlatlarga o'tish imkoniyati borligiga ko'ra:

- o'tish imkonini beruvchi bojxona posti mavjud bo'lgan;
- mamlakat ichida yoki bojxona posti mavjud bo'lmagan chegarada joylashgan.

4. Hududning relyefiga ko'ra:

- tekislik hududda joylashgan;
- tog'li hududda joylashgan.

5. Iqtisodiy salohiyatiga ko'ra:

- sanoatlashgan hudud;
- agrar hudud.

6. Ijtimoiy soha nuqtalarining mavjudligiga ko'ra:

- ijtimoiy soha rivojlangan hudud;
- ijtimoiy soha rivojlanayotgan hudud.

7. Transport aloqalarining darajasiga ko'ra:

- transport tuguni shakllangan hudud;
- transport tugunini shakllantirish kerak bo'lgan hudud.

8. Turizm imkoniyatlariga ko'ra:

- turizm imkoniyatlari mavjud hudud;
- turizm imkoniyatlari ishga solinmagan hudud.

9. Tranzit imkoniyatlari mavjudligiga ko'ra:

- ichki tranzit mavjud;
- xalqaro tranzit mavjud.

Albatta mazkur tasniflash ko'rinishlari dastlabki tarzda ilgari surilayotgan takliflar bo'lib, qo'shimcha chuqur tadqiqot o'rganishlarni, nazariy va amaliy tajribalarni, kuzatuv va tahlillarni talab etadi.

Har tomonlama o'rganishlar davomida tasniflash takliflari yanada boyitilib, shakllantirilib borilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isayev A.A. "Transport geografiyasi" Toshkent. «MUMTOZ SO'Z» 2019. 152 b.
2. Махаммадалиев, Р. Й., & Ниязов, А. А. (2021). Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортининг ривожланиши тарихи ва истиқболи. *Academic research in educational*, 2(2), 707-720. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00255>
3. Солиев А. Ўзбекистон географияси(Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: "Университет". 2014. – 404 б.
4. Менеджмент: Экзаменационные ответы. Серия «Сдаем экзамен». Ростов н/Д: «Феникс», 2002. — 384с.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasnif>
6. [b06fdc_5054fd4b673e49f5a16c4046819997ed.pdf \(iupr.ru\)](https://www.iupr.ru/b06fdc_5054fd4b673e49f5a16c4046819997ed.pdf)